

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2026 Vol. 2

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2026 Vol. 2

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Nurboy Jabborov, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshaboyeva, Zulkumor Xolmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Muzaffar Komilov (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Alizoda Saidumaran (Tojikiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Almaz Uvli (Ozarbayjon)	

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal. Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief:

Nozliya Normurodova

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Nurboy Jabbarov, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islamov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshabaeva, Zulxumor Kholmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Muzaffar Komilov (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Tanju Seyhan (Turkey)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Almaz Uvli (Azerbaijan)	

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Dilfuza Nurmanova, Nodirabegim Ismoilova

O'zbek tilshunosligida Qur'oni Karim teolingvistik tadqiqot
obyekti sifatida6

Dilrabo ELOVA

Normativ-huquqiy matnlarni lingvo-mantiqiy ekspertiza
qilish metodologiyasi (Soliq kodeksining 248-moddasi misolida)24

Вафа Абдуллаева-Набиева

Развитие синтаксиса азербайджанского языка в рамках
лингвокультурологии40

Kamil Tilyabayev

O'zbek tili: o'rganish, dekolonizatsiya va hissiyot58

Shaxlo Naraliyeva

O'zbek badiiy prozasida ekologik diskursning kognitiv-pragmatik
tadqiqi (O'tkir Hoshimov va Tog'ay Murod asarlari misolida)82

ADABIYOTSUNOSLIK

Gulbahor Ashurova

Turkum she'rlar – Alisher Navoiy obrazini yaratishda lirik
vosita sifatida.....95

Abdug'ani Nasriddinov

Adabiyotda falsafa va dinning uyg'unligi108

FAN. TA'LIM. METODIKA

Umidjon Kushayev

Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyasi: institutsional
transformatsiya va strategik model (O'zbekiston misolida)120

Мадина Назарова

Формирование иноязычной риторической компетенции на
материале английского официально-делового дискурса в
неязыковом вузе133

TARIX. MANBASHUNOSLIK

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylar va o'g'uz turklari149

Ilhami Cəfərsəy

Avrasiyanın qədim Xivə, Samara və Buxara şəhərləri172

CONTENT

LINGUISTICS

Dilfuza Nurmanova, Nodirabegim Ismoilova

The Holy Qur'an as an Object of Theolinguistic Research in
Uzbek Linguistics.....6

Dilrabo Elova

Methodology of Linguo-Logical Expertise of Normative Legal Texts24

Vafa Abdullayeva-Nabiyeva

Development of the Syntax of the Azerbaijani Language Within
the Framework of Linguoculturology40

Kamil Tilyabaev

Uzbek Language: Acquisition, Decolonisation and Emotions58

Shakhlo Naralieva

A Cognitive-Pragmatic Study of Environmental Discourse in Uzbek
Fiction (based on the works of Utkir Koshimov and Togay Murad).....82

LITERATURE

Gulbahor Ashurova

Cycle of Poems as a Lyric Device in the Creation of the Image of
Alisher Navo'i95

Abdugani Nasriddinov

The Harmony of Philosophy and Religion in Literature108

SCIENCE. EDUCATION. METHODOLOGY

Umidjon Kushaev

Integration of Artificial Intelligence into the Education System: Institutional
Transformation and Strategic Model (Uzbekistan as an Example)120

Madina Nazarova

Formation of Foreign-Language Rhetorical Competence Through
English Official-Business Discourse in Non-Language Higher Education...133

HISTORY. SOURCE STUDIES

Shamsiddin S. Kamoliddin

Samanids and Oghuz Turks149

Ilhami Jafarsoy

Ancient Khiva, Samara and Bukhara Cities of Eurasia172

Normativ-huquqiy matnlarni lingvo-mantiqiy ekspertiza qilish metodologiyasi

(Soliq kodeksining 248-moddasi misolida)

Dilrabo Elova¹

Abstrakt

Mazkur maqola matn va nutq qurilishida mantiqiy izchillikni ta'minlash hamda yuridik hujjatlarni lingvo-mantiqiy ekspertizadan o'tkazish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi rasmiy matnlarda, xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 248-moddasi misolida yuzaga keladigan sintaktik qamrov muammolari va mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash, ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari, tadqiqot propozitsional mantiq apparatini yuridik matnlar tahlilida qo'llash usullarini ko'rsatib beradi hamda huquqiy lingvistika va kognitiv tilshunoslik kesishmasidagi metodologik bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi.

Tadqiqot jarayonida to'rtta asosiy lingvistik-mantiqiy usuldan foydalanildi: leksik-semantik segmentatsiya, propozitsional mantiq tahlili, kontrafaktik modellash tirish va kogerentlik-diskursiv tahlil. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, huquqiy matnlarda "kengaytirilgan talqin" qoidasi ko'p hollarda mantiqiy kolliziyalarga sabab bo'ladi; qat'iy chegaralangan yopiq ro'yxat va anaforik bog'lanishsiz yozilgan mustaqil xatboshilar o'rtasida shartli qoidalarni (masalan, Vazirlar Mahkamasi tartibini) sun'iy ko'chirish mantiqan noto'g'ri ekanligi isbotlandi. Shuningdek, matnning turli qismlarida "bekor qilinishi mumkin bo'lgan mantiq" (defeasible reasoning) va "qat'iy mantiq" (monotonic reasoning) mexanizmlari parallel ravishda ishlashi hamda ularning aralashtirilishi qonunni noto'g'ri qo'llashga zamin yaratishi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: *lingvo-mantiqiy ekspertiza, yuridik lingvistika, kogerentlik, propozitsional mantiq, sintaktik qamrov, mantiqiy ziddiyat, Soliq kodeksi, rasmiy matn tahlili, anaforik bog'lanish.*

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda matn faqatgina grammatik qoida

¹ Elova Dilrabo Qudratillayevna – filologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: dilraboelova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-2329-1811

Iqtibos uchun: Elova, D. Q. 2026. "Normativ-huquqiy matnlarni lingvo-mantiqiy ekspertiza qilish metodologiyasi (Soliq kodeksining 248-moddasi misolida)". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 24 – 39.

va leksik birliklar yig'indisi emas, balki murakkab kognitiv-mantiqiy butunlik sifatida talqin etiladi. Matn va gaplar qurilishida mantiqiy izchillikni ta'minlovchi ikkita asosiy fenomen – kogeziya (tashqi grammatik va leksik-semantik bog'lanish) hamda kogerentlik (ichki mazmuniy va mantiqiy uzviylik) axborotning aniq, ziddiyatsiz va bir ma'noda qabul qilinishini ta'minlaydi. Ayniqsa, huquqiy va rasmiy matnlarda so'z qo'llashdagi kichik mantiqiy xatoliklar ham ulkan iqtisodiy-huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Aynan shu sababli huquqiy matn lingvistikasi bugungi kunda dunyo tilshunosligining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Huquqiy matn – bu oddiy kommunikativ matndan sifat jihatidan farqlanuvchi maxsus diskursiv shakl. Birinchidan, u normativlik xususiyatiga ega, ya'ni qoidalar va majburiyatlarni belgilaydi. Ikkinchidan, uning har bir so'zi huquqiy kuchga ega bo'lib, unda aks etgan noaniqlik yoki ko'p ma'nolilik turli talqinlarga va shu orqali nizolarga olib keladi. Uchinchidan, huquqiy matnda sintaktik va semantik munosabatlar nafaqat lingvistik, balki mantiqiy kategoriyalar orqali ham baholanishi zarur. Ana shu sababli yuridik tilshunoslik (forensic linguistics) alohida ilmiy soha sifatida shakllangan va uni lingvo-mantiqiy ekspertiza metodologiyasi bilan boyitish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Lingvistik ekspertiza tadqiqot obyekti sifatida

Lingvistik ekspertiza XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran mustaqil ilmiy soha sifatida shakllana boshladi. Mazkur sohaning nazariy asoslari, avvalo, ingliz tilshunosligida, xususan, J.Austinning nutq aktlari nazariyasida [Austin 1962] o'z ifodasini topdi va keyinchalik nemis, fransuz, rus hamda boshqa milliy tilshunoslik maktablarida taraqqiy etdi. Rossiya yuridik lingvistikasida A.N. Baranov [Баранов 2007] va E.I. Galyashinalarning [Галяшина 2003] tadqiqotlari sud ekspertizasida lingvistik metodlarni qo'llashning metodologik poydevorini yaratdi. Biroq aksariyat tadqiqotlar matnning semantik yoki pragmatik xususiyatlariga yo'naltirilgan bo'lib, propozitsional mantiq va formal semiotika vositalarini yuridik matn tahliliga tatbiq etish masalasi hamon yetarlicha o'rganilmagan. Aynan ushbu metodologik bo'shliqni bartaraf etish mazkur tadqiqotning markaziy muammosini tashkil etadi.

Nutqning lingvo-mantiqiy ekspertizasi bo'yicha jahon va o'zbek tilshunosligida qator fundamental tadqiqotlar yaratilgan. Xususan, matnning diskursiv mantiqini o'rganishda T.A. van Dijk [Van Dijk 1977] va W. Kintsch [Kintsch, Dijk 1983] ishlari asosiy rol

o'ynasa, matnning yashirin mantiqiy sintaksisi va kognitiv semantikasi masalalari N.D. Arutyunova [Арутюнова 1990] tadqiqotlarida keng yoritilgan. Yuridik lingvistika va huquqiy matnlar ekspertizasida mantiqning o'rne A.N. Baranov [Баранов 2007] va E.I. Galyashina [Галышина 2003] tomonidan chuqur tahlil qilingan.

- Tilshunoslikda argumentatsiya va mantiqiy isbotlash masalalarini tadqiq etishda Stiven Tulminning [Toulmin 1958] "argumentatsiya modeli" (ma'lumot $\square$ *Aksiomatik qoida (Bosh premisa)*: Soliq bazasi... bitim taraflari tomonidan qo'llanilgan narxdan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

- *Istisno va chegaralovchi filtrlar*: Agar bitimning narxi bozor qiymatidan past yoki yuqori bo'lsa...

- *Maxsus holatlar (Sub-premisalar)*: Ayirboshlash, bepul berish, shaxsiy maqsadda foydalanish.

- *Avtonom tartibga soluvchi normalar*: 4 va 6-qismlardagi mustaqil mexanizmlar.

Leksik-semantik segmentatsiya usulining ustuvorligi shundaki, u yuridik matnning "yashirin arxitekturasini"ni, ya'ni har bir qoidaning amal qilish doirasi va huquqiy kuchini aniq namoyon etadi hamda keyingi bosqichdagi mantiqiy tahlil uchun nazariy poydevor yaratadi.

2. Propozitsional mantiq tahlili (Implikatsiya va Disyunksiya).

Huquqiy gaplar shartli implikatsiya (**P** bo'lsa, **Q** amal qiladi) formulasi asosida ishlaydi. Propozitsional mantiq tahlilida matnning har bir normativ hukmi formal mantiq tili bilan ifodalanadi. 3-qism uchun: $P_1 \vee P_2 \vee P_3 \rightarrow Q$ – ya'ni uchta holat [P_1, P_2, P_3]ning ixtiyoriysi ro'y bersa, VM tartibiga [**Q**] muvofiq baho beriladi. 4-qism uchun: $R \rightarrow S$ (narx bozor qiymatidan chetlashsa [**R**], soliq organi tuzatish kiritishga haqli [**S**]) va $T \rightarrow S$ (to'lovchi asoslab bersa [**T**], tuzatish bekor qilinadi [**¬S**]).

Tahlilni mukammallashtirish uchun moddada bog'lovchilarning mantiqiy yuki tekshiriladi. 248-modda 1-qismidagi "Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa..." sharti butun matnning qonuniy kuchini himoya qiluvchi mantiqiy filtr sifatida tahlil qilindi. Bu shartning ishlashi keyingi bandlardagi istisnolar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri ziddiyatlarning (kontradiksiyaning) oldini oladi. Shuningdek, "quyidagi hollarda" birikmasi yuridik mantiqda "agarda va faqat agarda" ($\leftrightarrow$) operatori sifatida ishlashi, ya'ni ro'yxatni ham cheklovchi, ham yakunlovchi funksiyani bajarishi aniqlandi.

3. Kontrafaktik modellash (Sintaktik qamrovni tekshirish).

Kontrafaktik modellash – bu matnga sun’iy tarzda mantiqiy xatolar kiritib ko’rish yoki huquqni qo’llash amaliyotidagi kelishmovchiliklarni lingvistik modellash usuli. Ushbu usulning mohiyati tahlil qilinayotgan matnning muayyan qoidasi o’z chegarasidan tashqariga sun’iy ravishda kengaytirilganda kelib chiqadigan ziddiyatlarni aniqlash va unga yechim berishdab iborat. Ushbu usul orqali matndagi anaforik (qaytaruvchi) bog’lanishlarning mavjudligi yoki yo’qligi pragmatik jihatdan baholandi. 3-qismdagi VM tartibining 4-qismga sun’iy tatbiq etilishi holati modellashirilib, natijada ikki zid normaning bir vaqtda amalda bo’lishi (kontradiksiya) aniqlandi. Ro’yxatdagi uchinchi holatni (shaxsiy maqsadda foydalanish) 4-qismdagi “erkin isbotlash” mexanizmi bilan birlashtirishning mantiqan imkonsizligi ko’rsatildi.

4. Kogerentlik-diskursiv tahlil.

Ushbu usul T.A. van Dijk va W. Kintschning [Kintsch, Dijk 1983] matn kogerentligi nazariyasiga asoslanadi. Diskursiv tahlilning maqsadi matnning tematik izchilligini va local mantiqiy uzviyligini bir vaqtda baholashdan iborat. Yuridik matnlarda kogerentlik nafaqat uslubiy, balki normativ jihatdan ham zaruriy shart hisoblanadi. Matn qismlari o’rtasida mantiqiy ziddiyat bo’lsa, bu to’g’ridan-to’g’ri qonunni noto’g’ri qo’llashga olib keladi. Ushbu usul doirasida 248-moddaning oltita qismi o’rtasidagi global kogerentlik tekshirildi. Xususan, har bir qismning “Grice aloqadorlik tamoyili”ga (relevance maxim) ga muvofiqlik darajasi [Grice 1975] baholandi va qaysi qismlar o’rtasida anaforik bog’liqlik mavjudligi, qaysilarida esa mustaqil normativ hududlar shakllanganligi aniqlandi.

Lingvo-mantiqiy tahlil natijalari

Soliq kodeksining 248-moddasi [O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2021] ustida o’tkazilgan bandma-band lingvo-mantiqiy tahlil rasmiy matnlarning ko’rinmas sintaktik iyerarxiyasini va huquqni qo’llashda kelib chiqadigan mantiqiy muammolarni aniqlash imkonini berdi.

1. Sintaktik qamrov va qat’iy cheklov mantig’i (3-qism tahlili).

Moddaning 3-qismida qat’iy sintaktik chegara mavjudligi tasdiqlandi. Quyidagi matn tahlil qilindi:

“Soliq bazasi quyidagi hollarda tovarlarning (xizmatlarning) O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq aniqlanadigan bozor qiymatidan

kelib chiqqan holda aniqlanadi: 1) tovarlarni (xizmatlarni) boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlab realizatsiya qilishda; 2) agar ushbu Kodeksning 239-moddasi birinchi qismi 2-bandida yoki ikkinchi qismining 2-bandida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni (xizmatlarni) bepul berishda (ko'rsatishda); 3) yuridik shaxsning mol-mulkidan ushbu Kodeksning 239-moddasi to'rtinchi qismi 6-bandiga muvofiq shaxsiy maqsadlarda foydalanishda."

Ekspertiza tahlilidan ko'rinib turibdiki, "Quyidagi hollarda" jumlasini yuridik lingvistikada "qat'iy yopiq ro'yxat" (exhaustive list) ni shakllantiradi. Propozitsional mantiq formulasida bu holat quyidagicha ifodalanadi: $(P_1 \vee P_2 \vee P_3) \leftrightarrow Q$, ya'ni VM tartibining qo'llanishi faqat ushbu uchta holatning biriga to'g'ri kelganda (va faqat shundagina) mantiqan to'g'ridir. "*Quyidagi hollarda*" iborasi bir vaqtda ham keraklilik, ham yetarlilik shartini bildiradi - bu esa ro'yxatning to'liq va cheklovchi ekanligini tasdiqlaydigan eng kuchli lingvistik asos hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi (VM) tartibining huquqiy ta'sir doirasi faqatgina sanab o'tilgan uchta holat bilan chegaralanadi. Bu yerdagi mantiqiy zarurat o'z isbotini topdi: ushbu holatlarda bitim narxi (real pul massasi) mavjud bo'lmagani sababli, davlat sun'iy baholash tartibini (VM tartibini) imperativ tarzda joriy etgan. Ro'yxat yakunlanishi bilan bu hukmning ta'sir kuchi mantiqan to'xtaydi.

Ushbu natija yuridik tilshunoslikda "sintaktik qamrov" (syntactic scope) nazariyasining bevosita tatbiqi hisoblanadi. Unga ko'ra, muayyan grammatik konstruktsiya (bu yerda "quyidagi hollarda") qamrov doirasini belgilab, undan tashqaridagi matn qismlariga ta'sir qilmaydi. Ushbu qoida isbotlanishi uchun kontrafaktik modellash usuli qo'llanildi: agar 3-qismdagi VM tartibini 4-qismga ham tatbiq etilganida deb faraz qilsak, 4-qismda soliq to'lovchiga berilgan erkin isbotlash huquqi va VMning qat'iy baholash tartibi o'rtasida bir-birini bekor qiluvchi mantiqiy kontradiksiya yuzaga kelgan bo'lar edi.

2. Erkin isbotlash va bekor qilinishi mumkin bo'lgan mantiq (4-qism tahlili).

"Agar bitimning narxi tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan past yoki yuqori bo'lsa, soliq organlari soliq bazasiga tuzatish kiritishga haqli. Soliq to'lovchi bunday qaror yuzasidan bitimning narxi bozor narxlariga muvofiqligini va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qaratilmaganligining asoslarini taqdim etish yo'li bilan nizolashishga haqli."

Lingvistik ekspertiza natijalariga ko'ra, 4-qism matni 3-qismdan mutlaqo mustaqil sintaktik butunlikdir. 4-qismda oldingi qismdagi mexanizmga (VM tartibiga) ishora qiluvchi hech qanday anaforik olmoshlar (ushbu, mazkur, yuqoridagi) mavjud emas. Mazkur holat tasodifiy xarakterga ega emas: 4-qism tubdan farq qiluvchi huquqiy mexanizmni – “defezibl mantiq” (*defeasible reasoning*) yoki “bekor qilinishi mumkin bo'lgan xulosa” tamoyilini tatbiq etadi. Bekor qilinishi mumkin bo'lgan mantiq doirasida muayyan hukm boshlang'ich qoida (prezumpsiya) sifatida ilgari suriladi, biroq yetarli kontrargument (rad etuvchi dalil) taqdim etilganda, ushbu hukm bekor qilinishi mumkin. 4-qismda aynan shu mantiqiy tuzilma namoyon bo'ladi: soliq organi soliq bazasiga tuzatish kiritish **tezisini** ilgari sursa, soliq to'lovchi erkin bozor narxlariga tayangan holda **antitezis** orqali mazkur hukmni nizolashish huquqiga ega bo'ladi. Bu holatda yagona VM tartibini qo'llash imkonsizligi til qonuniyatlari orqali tasdiqlandi.

Mantiqiy formula: $R \rightarrow S$ (tuzatish kiritish), lekin $T \rightarrow \neg S$ (to'lovchi asoslab bersa, tuzatish bekor qilinadi). Bu - 3-qismdagi bir yo'nalishli mantiqdan tubdan farqlanuvchi bidireksional (ikki tomonlama) mantiqiy tuzilma. Qat'iy (o'zgarmas) mantiqiy xulosada esa hukm bir marta o'rnatilgach, hech qanday yangi ma'lumot uni o'zgartirishga qodir emas. 3-qismdagi VM tartibi aynan shunday ishlaydi, chunki ro'yxatdagi holat mavjud bo'lsa, VM baholash tartibi muqarrar qo'llaniladi. VM tartibini 4-qismga sun'iy tatbiq etish ikki turdagi ziddiyatni yuzaga keltiradi: 1) qat'iy imperativ norma va erkin isbotlash huquqini bir vaqtda qo'llash mantiqan imkonsiz (kontradiksiya); 2) anaforik havola yo'q joyda implitsit bog'lanishni taxmin qilish til qonuniyatlarini buzadi.

3. Asimmetrik mantiqiy chegara (6-qism).

Import bilan bog'liq qismda “hisoblab chiqarilgan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas” degan qo'shaloq inkor orqali iqtisodiy xavfsizlikning lingvistik ifodasi – “Minimal qiymat chegarasi” (Eng quyi mantiqiy chegara) qoidasi o'rnatilganligi aniqlandi.

Mantiqiy tahlil nuqtayi nazaridan, bu qoida bir tomonlama imperativ soliq bazasi belgilangan minimumdan past bo'la olmaydi, lekin undan yuqori bo'lishi erkin. Formula: $X \geq M$ (X – amaliy soliq bazasi, M – minimal chegara). Bu – 3-qismdagi ikkitarafli qat'iy mezon (bozor qiymatiga teng bo'lishi shart) va 4-qismdagi erkin isbotlash mexanizmidan sifat jihatidan farqlanuvchi uchinchi turdagi mantiqiy tuzilmadir. Shunday qilib, 248-modda uch xil mantiqiy arxitekturadan tashkil topganligi isbotlandi: (a) imperativ

ikki tomonlama tenglashtirish (3-qism); (b) bekor qilinishi mumkin bo'lgan tuzatish (4-qism); (c) bir tomonlama quyi chegara (6-qism).

6-qismda qo'llanilgan qo'sh inkorli konstruktsiya – *“past bo'lishi mumkin emas”* – tilshunoslik va huquqiy mantiq nuqtayi nazaridan alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Tabiiy tilda qo'shaloq inkor, odatda, ijobiy mazmunni uslubiy jihatdan kuchaytirish (graduonimiya) uchun xizmat qiladi. Biroq yuridik diskursda u qat'iy chegaralovchi funksiyani bajaradi, *“qiymatdan past bo'lishi mumkin emas”* birikmasi mantiqiy jihatdan *“qiymatga teng yoki undan yuqori bo'lishi shart”* degan mazmunni anglatadi

Bu propozitsional mantiq tilida $X \geq M$ formulasining lisoniy ifodalanishidir. Mazkur lingvistik usul qonun ijodkorining chegaralovchi normani oddiy tavsiya yoki yumshoq dispozitsiya shaklida emas, balki qat'iy mantiqiy zarurat (modallik) sifatida ifodalashga bo'lgan intilishini ko'rsatadi.

4. Aksiomatik filtr va global kogerentlik (1-qism tahlili).

1-qismdagi *“Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa...”* iborasi butun modda bo'yicha global kogerentlikni ta'minlovchi meta-norma (boshqa normalarni boshqaruvchi qoida) sifatida ishlaydi. Kogerentlik tahlili natijasi sifatida aytish mumkinki, bu ibora modda qismlarining mantiqiy iyerarxiyasini belgilaydi. Agar keyingi qismlar bosh qoidadan chetlashsa, bu chetlash legitimdir, chunki o'sha meta-norma uni oldindan ruxsat etib qo'ygan. Shu orqali qonun chiqaruvchi ziddiyatni profilaktik tarzda oldini olgan.

Biroq, bu meta-norma matn qismlarining bir-biriga nisbatan huquqiy maqomini emas, faqat umumiy bosh qoidaga nisbatan maqomini belgilaydi. Ya'ni, 3-, 4- va 6-qismlarning o'zaro munosabatini tartiblashtirish bu filtrning vazifasiga kirmaydi. Aynan shu nuqta amaliyotchilarning eng ko'p adashuvini keltirib chiqaradigan lingvistik-mantiqiy *“tuzoq”* sifatida aniqlanadi. Meta-normaning mavjudligi qismlararo mantiqiy mustaqillikni bekor qilmaydi, aksincha, har bir qism o'z mantiqiy doirasida avtonom qoladi.

5. 239-modda bilan o'zaro havolalar: tashqi mantiqiy bog'liqlik tahlili.

248-moddaning birinchi qismning 2-bandiga hamda to'rtinchi qismning 6-bandiga 239-moddaga yo'naltirilgan ikkita aniq ekstrakontekstual (tashqi) havola mavjud. Ushbu havolalar o'ziga xos lingvo-mantiqiy funksiyani bajaradi. Ular 248-moddaning chekllovchi ro'yxatiga istisno holatlarni tashqi manba orqali

integratsiya qilish vositasi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, 3-qismdagi ro'yxat mutloq yopiq tizim emas, balki 239-modda bilan shartlangan yopiq strukturadir.

239-moddaning tegishli bandlaridagi "boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa" sharti 248-moddaning 3-qismidagi bepul berish holatiga tatbiq etiladi. Bu jarayon quyidagi mantiqiy strukturani hosil qiladi: agar 239-modda o'ziga xos istisno belgilamagan bo'lsa, 248-modda qoidasi o'z kuchini saqlab qoladi ($P \rightarrow Q$). Agar 239-modda muayyan istisno nazarda tutgan bo'lsa, 248-modda qoidasining amal qilishi to'xtatiladi ($\neg P \rightarrow \neg Q$). Demak, mazkur havola tashqi modulyatsiya mexanizmi - bir qonun normasining mantiqiy kuchini boshqa modda orqali transformatsiya qilish usulidir. Bunday o'zaro bog'liqliklarsiz qonun matni murakkab iqtisodiy munosabatlarni to'liq qamrab ololmas edi.

Ushbu tashqi havolalarning lisoniy ifodasi ham muhim ahamiyatga ega. "Agar ushbu Kodeksning 239-moddasida... boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa" jumlasini to'g'ridan-to'g'ri anaforik (havolaviy) konstruksiya bo'lib, matn ichidagi aniq lokalizatsiyani ko'rsatadi. Bu holat 4-qismning Vazirlar Mahkamasi (VM) tartibiga bog'liq emasligini yana bir bor tasdiqlaydi. 4-qismda bunday tashqi havolalar mavjud emas, demak, u o'z ichki mantiqiy tizimida avtonom ishlaydi. Shu orqali qonun ijodkori qaysi qismlarda tashqi normaga tayanganini va bu tayanishni aniq lisoniy birliklar orqali ifodalaganini, qaysi o'rinlarda esa mustaqil tartibga solishni nazarda tutganini differensial usulda ko'rsatib bergan.

Havolalar tizimini lingvo-mantiqiy ekspertiza nuqtayi nazaridan o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, 248-moddaning 3-qismidagi havolalar ro'yxatning "shartli yopiqlik" tabiatini belgilaydi. Ya'ni, 239-modda muayyan holatlar uchun alohida tartib belgilamagan taqdirda, 248-modda qoidasi to'liq huquqiy kuchga ega bo'ladi. Mazkur mexanizm qonun chiqaruvchining norma ierarxiyasini qanday lisoniy vositalar orqali qurishini aniq namoyon etadi. Havolalar nafaqat ma'lumot almashish vositasi, balki mantiqiy hukmlarning ta'sir doirasini kengaytiruvchi yoki cheklovchi faol semiotik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

6. Terminologik noaniqlik va semantik differentsiatsiya muammosi

Leksik-semantik segmentatsiya jarayonida 248-moddada qo'llanilgan bir qator terminlarning semantik chegaralari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "bozor qiymati" va

“bozor narxi” tushunchalari matnning turli segmentlarida sinonim sifatida qoʻllanilgan. Biroq iqtisodiy-huquqiy diskursda ushbu tushunchalar oʻzaro farqlanadi. Bozor narxi - real amalga oshirilgan operatsiya bahosi, bozor qiymati esa mustaqil baholash orqali belgilanadigan nazariy koʻrsatkichdir. Bozor narxini baholashda retrospektiv maʼlumotlar (oʻxshash bitimlar statistikasi) qoʻllanilsa, bozor qiymatini aniqlashda istiqboldagi daromad oqimlari yoki qiyosiy bozor tahlili metodlari qoʻllaniladi.

Ushbu terminologik noaniqlikning amaliy oqibatlari jiddiydir. 4-qismdagi “erkin isbotlash” mexanizmda soliq toʻlovchi oʻz bitimlarining “bozor narxlariga muvofiqligi”ni isbotlashi lozim. Ammo modda matnida “bozor qiymati” va “bozor narxi” terminlari oʻzaro almashtirib qoʻllanilganligi sababli, subyekt qaysi koʻrsatkichni mezon sifatida olishi kerakligi noaniq qolmoqda. Bu kabi terminologik diffuziya semantik jihatdan farqli ikki birlikning lisoniy muvofiqlashuviga olib keladi, natijada har ikkala tomon ham oʻz manfaatiga xizmat qiluvchi subyektiv talqinni tanlash imkoniyatiga ega boʻladi.

Shu nuqtayi nazaridan, qonun ijodkorligi jarayonida sinonimiyaning oldini olish va har bir terminga oʻz konteksti doirasida yagona, qatʼiy maʼno biriktirish maqsadida maxsus terminologik ekspertiza bosqichini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu lisoniy birliklarning semantik chegaralarini qatʼiy-lashtirish orqali huquqiy nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar huquqiy matnlarni talqin qilishda yuzaga keladigan koʻplab amaliy muammolarni yoritib beradi. Amaliyotda, ayniqsa soliq maʼmuriyatchiligida ekspertlar va huquqshunoslar tomonidan “Kengaytirilgan talqin” xatosiga yoʻl qoʻyish holatlari tez-tez uchraydi.

Tadqiqot obyekti boʻlgan 248-moddaning [Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2021] 3- va 4-qismlarini qoʻllashdagi kelishmovchiliklar bunga yaqqol misoldir. Amaliyotchi mutaxassislar bitta modda doirasida yonma-yon kelganligi sababli, 3-qismdagi cheklovchi hukmni (“Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan tartib”) 4-qismga ham joriy etishga urinadilar. Biroq bu yondashuv matnning lingvistik arxitekturasini eʼti borsiz qoldirishdir. A.N.Baranovning huquqiy lingvistika haqidagi qarashlariga tayanib aytish mumkinki (Баранов 2007), yuridik matnlarda “implitsit (yashirin) qoʻllanish” (oldingi xatboshidagi qoidaning keyingisiga yozilmasdan oʻtib ketishi) faqatgina anaforik vositalar qatnashgandagina qonuniy kuchga ega boʻladi. Bunday holatlarda qonun chiqaruvchi matn

ichiga “ushbu qismda ko’rsatilgan tartibda”, “mazkur xatboshiga muvofiq” kabi to’g’ridan-to’g’ri havola beruvchi iboralarni kiritadi. 248-moddaning 4-qismida bunday iboralar mutlaqo yo’qligi esa muayyan normaning ataylab mustaqil tarzda qurilganligini bildiradi.

Mazkur muammo xalqaro huquqiy lingvistika sohasida ham muhim o’rin tutadi. Qiyosiy tahlil natijasi sifatida aytish mumkinki, Germaniya qonunchiligida “Numerus clausus” (lot. “yopiq ro’yxat/sanoq”) tamoyili qat’iy kodifikatsiya qilingan. Ingliz-Amerika an’anaviy huquqida esa “expressio unius est exclusio alterius” (lot. “birining ko’rsatilishi boshqasini istisno etadi”) talqin qoidasi qo’llaniladi. O’zbekiston qonunchiligida bunday rasmiy talqin qoidalarining hali tizimlashtirilmaganligi mazkut tadqiqotning asosiy amaliy tavsiyalaridan biriga aylanadi.

Agar 4-qism mantiqan VM tartibiga bog’langanida edi, matnda qat’iy ziddiyat (kontradiksiya) yuzaga kelgan bo’lardi. Bir vaqtning o’zida ham qat’iy davlat tartibi qoidalari asosida hisoblash, ham soliq to’lovchining erkin bozordagi narxlar orqali isbotlash huquqi birga yashay olmas edi. T.A. van Dijk va W. Kintsch [Kintsch, Dijk 1983] nazariyalariga ko’ra, kogerentlik nafaqat tashqi elementlar, balki ichki tushunchalar o’rtasidagi mantiqiy kolliziyasizlikdir. Lingvistik-mantiqiy yondashuv bu vaziyatda “To’g’ridan-to’g’ri va so’zma-so’z talqin” usulining ustunligini va xatboshilarning mantiqan avtonom ekanligini isbotlaydi.

S. Toulminning argumentatsiya modeli [Toulmin 1958] nuqtayi nazaridan, 3-qism va 4-qismni tahlil qilinganda, ikki qarama-qarshi argumentatsion tuzilma aniqlanadi. 3-qismda: ma’lumot (D) = maxsus holat mavjud; kafolat (W) = VM tartibi qo’llaniladi; hukm (C) = bozor qiymati VM baholashi orqali aniqlanadi. 4-qismda esa: ma’lumot (D) = narx bozor qiymatidan chetlashdi; kafolat (W) = soliq organi tuzatish kiritishga haqli, lekin hukm (C) = to’lovchi isbotlasa, tuzatish bekor qilinishi mumkin. Bu ikkita tuzilma bir-biridan tubdan farqli mantiqiy asosga ega bo’lib, ularni aralashtirishning imkonsizligini dalillar zanjiri orqali ham ko’rsatish mumkin.

F. van Eemeren va R. Grootendorstning pragma-dialektik nazariyasi [van Eemeren F. H., Grootendorst R. 1984] nuqtayi nazaridan, 4-qismdagi vaziyat “tanqidiy munozara” modeliga mos keladi. Mazkur jarayonda ikki tomon (soliq organi va to’lovchi) o’z tezislarini ilgari surgan holda, o’zaro dalillar asosida muloqotga kirishadi. 3-qismdagi bir tomonlama buyruq ohangi esa bunday muloqot imkoniyatini cheklaydi. Shu bois mazkur ikki qismning (mazmunan va shaklan) aralashtirilishi natijasida yuzaga keladigan

ziddiyat nafaqat mantiqiy, balki kommunikativ-pragmatik jihatdan ham asossizdir.

H.P. Grice [Grice 1975]ning aloqadorlik tamoyili nuqtayi nazaridan yondashilsa, 4-qism o'zining mustaqil normativ mazmuni bilan mantiqan 3-qism tarkibida, balki 1-qismda bayon etilgan umumiy bosh qoida doirasida amal qilishi lozim. Bu o'rinda "aloqadorlik" tushunchasi mazkur qismning butun modda doirasidagi dahldorligini, ya'ni global tematik aloqasini ifodalaydi va u VM tartibiga qaraganda kengroq miqyosda namoyon bo'ladi.

239-modda bilan o'zaro havolalar tahlili (5-natija) huquqiy matnlar lingvistikasida "modulli tartibga solish" konsepsiyasining amaliy ifodasini namoyon etdi. Zamonaviy qonunchilik tobora modullashgan xarakter kasb etmoqda. Muayyan modda qismining boshqa moddaga havola qilishi natijasida murakkab mantiqiy strukturalar shakllanadi. Bunday havolalar tizimini to'g'ri talqin etish lingvo-mantiqiy ekspertizaning maxsus ko'nikmasini talab etadi. Basharti yurist matnni faqat yuzaki grammatik sathda tahlil qilsa, havolaning semantik va mantiqiy yukini to'liq anglay olmaydi. Shu sababli ekspertiza bayonnomasida har bir moddalararo havolani mantiqiy funksiyasi - determinatsiya (cheklash), intensivatsiya (kuchaytirish) yoki annulyatsiya (bekor qilish) nuqtati nazaridan tadqiq etish alohida bosqich sifatida kiritilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining takomillashib borishi huquqiy matnlarga qo'yiladigan lingvo-mantiqiy talablarning ortishiga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda qonun loyihalarini ekspertizadan o'tkazish tizimida huquqiy va iqtisodiy tahlillar majburiy tartibga kiritilgan bo'lsa-da, lingvo-mantiqiy ekspertiza hali mustaqil protsessual bosqich sifatida huquqiy maqomga ega emas. Mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadiya Adliya vazirligi qoshida tarkibiga tilshunos-ekspertlar, mantiqshunoslar va soha yuristlarini qamrab oluvchi maxsus lingvo-ekspert guruhi tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur guruhning uslubiy qo'llanmasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan tasdiqlangan huquqiy ekspertiza yo'riqnomasi asosida ishlab chiqilishi lozim va bu mamlakat qonunchiligida lingvo-mantiqiy mezonlarni unifikatsiya qilish (bir xillashtirish) sari muhim qadam bo'ladi.

Lingvo-mantiqiy ekspertiza xulosasining huquqiy maqomini belgilash amaliyot nuqtayi nazaridan dolzarb masaladir. Bugungi kunda yuridik ekspertiza xulosalari aksariyat hollarda tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, majburiy huquqiy kuchga ega emas. Lingvo-

mantiqiy ekspertiza xulosasiga rasmiy maqom berish, ya'ni uni soliq nizolari va sud jarayonlarida protsessual dalil sifatida qabul qilish ushbu metodologiyaning amaliy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu borada E.I. Galyashina [Галышина 2003] tomonidan tizimlashtirilgan Rossiya Federatsiyasi sud-lingvistik ekspertizasi instituti tajribasini o'rganish, shuningdek, Qozog'iston va Belarus qonunchiligida yaqinda joriy etilgan lingvistik ekspertiza standartlarini tahlil qilish ijobiy natijalar beradi.

Terminologik muammo masalasida shuni ta'kidlash joizki, "bozor qiymati" va "bozor narxi" tushunchalarining sinonim sifatida xato qo'llanishi nafaqat lingvistik, balki jiddiy iqtisodiy-huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bunday noaniqlik sharoitida soliq to'lovchi erkin isbotlash huquqi doirasida terminologik nomuvofiqlikdan foydalanib, o'z manfaatiga xizmat qiluvchi subyektiv talqinni tanlash imkoniga ega bo'ladi. Bu esa Z.Xolmanova [Холманова 2007] tomonidan ilgari surilgan terminlararo semantik chegaralanishning (semantik differensiatsiya) zarurligi masalasini yana bir bor tasdiqlaydi.

248-moddadagi lingvo-mantiqiy muammolarning asosi uchta omilga borib taqaladi:

1) murakkab mantiqiy arxitekturaning bitta meta-norma ostiga yashiringanligi (latentligi);

2) anaforik havolalarning tizimli va normativ tarzda qo'llanilmaganligi;

3) terminologik apparatning unifikatsiya qilinmaganligi.

Mazkur uchta omilni bartaraf etish kelgusidagi qonun ijodkorligi jarayonida lingvo-mantiqiy ekspertiza protokolini joriy etishning strategik yo'nalishlarini belgilab beradi.

Mantiq har qanday axborotning, ayniqsa, huquqiy va rasmiy matnlarning ko'rinmas asosidir. Matnni lingvo-mantiqiy ekspertiza qilish orqali grammatik va uslubiy jihatdan bexato yozilgan gaplar ham o'zida yashirin mantiqiy ziddiyatlarni yoki asossiz kengaytirilgan talqinlarni mujassam etishini kuzatish mumkin.

O'tkazilgan dekonstruktiv tahlil asosida quyidagilarni ta'kidlash maqsadga muvofiq:

Sintaktik qamrovning buzilishi yuridik xatodir. "Quyidagi hollarda" kabi jumlarlar yopiq mantiqiy ro'yxatni shakllantiradi. Propozitsional mantiq nuqtayi nazaridan, bunday ro'yxat bikonditsional operator ($\leftrightarrow$) bilan ifodalanadi, ya'ni huquqiy norma faqat va faqat sanab o'tilgan holatlarga nisbatan amal qiladi. Mazkur ro'yxatdan tashqaridagi mustaqil xatboshilarga maxsus

cheklovchi tartiblarni sun'iy ravishda tatbiq etish mantiqiy kross-kolliziya (ziddiyat)ni keltirib chiqaradi. Bu nafaqat lingvistik, balki huquqiy xato sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak, chunki u huquqni qo'llashda qonunga zid natijaga olib keladi.

Anaforik mustaqillik. Matn birliklari o'rtasida havola beruvchi (ishora qiluvchi) vositalar mavjud bo'lmagan taqdirda, har bir xatboshi avtonom mantiqiy hudud sifatida faqat o'z matniy konteksti doirasida talqin qilinishi shart. Bu tamoyil nafaqat lisoniy, balki huquqiy me'yordir: qonun tuzuvchi mantiqiy bog'liqlikni nazarda tutganida, matn ichiga maxsus anaforik havolalarni kiritadi. Bunday havolalar mavjud bo'lmagan o'rinlarda implitsit (yashirin) bog'lanish taxmin qilinmaydi. Bu tamoyil O'zbekiston sud amaliyotida ham rasmiy talqin mezoni sifatida e'tirof etilishi zarur.

Mantiqiy arxitekturaning farqlanishi. Bitta modda tarkibida ham monoton imperativ (3-qism), ham bekor qilinishi mumkin bo'lgan mantiq (4-qism), ham bir tomonlama chegara normasi (6-qism) birgalikda mavjud bo'lishi mumkin. Ularning o'zaro aralashib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun, lingvo-mantiqiy ekspertiza matn dekonstruksiyasining ajralmas bosqichi sifatida joriy etilishi lozim. Jumladan, har bir normativ qism uchun qaysi mantiqiy tuzilma ishlayotganini aniq belgilash ekspert xulosasining majburiy elementi bo'lishi kerak.

Huquqiy matnlarda sinonim sifatida qo'llaniladigan terminlar (masalan, "bozor qiymati" va "bozor narxi") semantik differensiatsiyaga (chegaralanishga) uchramasa, ular nizoli talqin manbayiga aylanadi. Qonun loyihalarini yaratish bosqichida terminologik apparatni lingvo-mantiqiy tahlildan o'tkazish bu kabi xatarlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Tashqi havolalar tizimini talqin qilish ko'nikmasi. 239-modda bilan o'zaro havolalar tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy kodifikatsiyalashgan qonunchilikda moddalararo mantiqiy bog'lanishlar nafaqat matniy qurilish, balki normaning ta'sir doirasini belgilovchi faol semiotik vositadir. Ushbu havolalar tizimini to'g'ri tahlil qilish va ularning mantiqiy yukini aniqlash yuridik lingvistik ekspertizaning alohida va ustuvor kompetensiyasidir. Mazkur ko'nikmani ekspertlar tayyorlash dasturlarida mustaqil modul sifatida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Lingvistik ekspertiza zarurati. Amaliyotdagi huquqiy nizolarning salmoqli qismi iqtisodiy omillar emas, balki lingvo-mantiqiy tushunmovchiliklar (noto'g'ri interpretatsiya) oqibatidir. E.I.Galyashina (2003) ta'kidlaganidek, sud-lingvistik ekspertizasi

nafaqat nizolar yuzaga kelganda, balki normativ hujjatlar qabul qilinishidan avval profilaktik (ekspert-tahrir) maqsadda ham qo'llanilishi shart.

Xulosa

Kelgusida qonun hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida lingvistik-mantiqiy ekspertizani joriy etish, shuningdek, Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalaridan foydalanib, o'zbek tilidagi rasmiy matnlarda sintaktik qamrov muammolari, anaforik bog'lanishlar va mantiqiy ziddiyatlarni avtomatik aniqlovchi raqamli algoritmlarni yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday tizim qonun chiqaruvchilar, huquqshunoslar va lingvist-ekspertlar uchun samarali professional vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida lingvo-mantiqiy ekspertiza metodikasini mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllantirish, tegishli darslik va qo'llanmalar yaratish dolzarb vazifadir.

Tadqiqotda qo'llanilgan to'rtta usulning kompleks tatbiqi lingvo-mantiqiy ekspertizaning nafaqat yuridik, balki kognitiv-epistemik darajada ham asoslilikini isbotlaydi. Leksik-semantik segmentatsiya matnning latent "mantiqiy xaritasi"ni ochib bersa, propozitsional mantiq tahlili uni rasmiy tizimga keltiradi. Kontrafaktik modellashtirish xatolarning amaliy oqibatlarini modellashtiradi, kogerentlik-diskursiv tahlil esa butun sistemaning ichki uyg'unligini baholaydi. Ushbu metodologik modulli tizim har xil turdagi huquqiy matnlarga (qonunlar, farmonlar, xalqaro shartnomalar) moslashtirilishi va o'zbek tilshunosligida lingvistik ekspertologiya yo'nalishini yangi bosqichga olib chiqishi zarur.

Adabiyotlar

- Арутюнова, Н. Д. 1990. *Логический анализ языка: Противоречивость и аномальность текста*. Москва: Наука.
- John Langshaw Austin. 1962. *How to Do Things with Words*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
- Баранов, А. Н. 2007. *Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика*. Москва: Флинта; Наука.
- Галяшина, Е. И. 2003. *Основы судебного речеведения*. Москва: Стет.
- Herbert Paul Grice. 1975. "Logic and Conversation." In *Syntax and Semantics*, vol. 3, edited by Cole P. and Morgan J. New York: Academic Press.
- Ҳакимов, М. 2001. *Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини*. Тошкент: Фан.
- Walter Kintsch, and Teun A. van Dijk. 1983. *Strategies of Discourse Comprehension*. New York: Academic Press.

- Маҳмудов, Н. 1998. *Ўзбек тилининг назарий грамматикаси: Синтаксис*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. 2021. Тошкент: Lex.uz.
- Сафаров, Ш. 2006. *Прагматингвистика*. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- John Searle. 1969. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Stephen Toulmin. 1958. *The Uses of Argument*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Frans H. van Eemeren, and Rob Grootendorst. 1984. *Speech Acts in Argumentative Discussions*. Dordrecht: Foris.
- Teun A. van Dijk. 1977. *Text and Context: Explorations in the Semantics and Pragmatics of Discourse*. London: Longman.
- Холманова, З. Т. 2007. *Юридик терминларнинг лексик-семантик хусусиятлари ва таржима муаммолари*. Тошкент: ТДЮ нашриёти.

Methodology of Linguo-Logical Expertise of Normative Legal Texts.

A Case Study of Article 248 of the Tax Code

Dilrabo Elova¹

Abstract

This article discusses the problem of maintaining logical consistency in texts and sentences, as well as the linguistic-logical analysis of legal documents. The research is based on Article 248 of the Tax Code of the Republic of Uzbekistan. The main aim of the study is to identify syntactic scope problems and logical contradictions in official legal texts and to propose ways to solve them.

The article explains how propositional logic can be applied to the analysis of legal texts. It also connects the fields of legal linguistics and cognitive linguistics by showing their common methodological possibilities.

The research uses four main methods: lexical-semantic segmentation, propositional logic analysis, counterfactual modeling,

¹ Dilrabo Q. Elova – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

E-mail: dilraboelova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-2329-1811

For citation: Elova, D. Q. 2026. "Methodology of Linguo-Logical Expertise of Normative Legal Texts. A Case Study of Article 248 of the Tax Code". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 24 – 39.

and coherence-discourse analysis. The results show that too broad an interpretation of legal texts can cause logical contradictions. In particular, the study proves that conditional rules, such as procedures established by the Cabinet of Ministers, should not be applied to independent parts of the text that are not connected by anaphoric reference.

The article also shows that different types of logical reasoning may appear in different parts of a legal text. If defeasible reasoning and monotonic reasoning are confused, this may lead to incorrect understanding and application of the law. Therefore, linguistic-logical expertise is important for making legal documents clear, consistent, and correctly interpretable.

Key words: *linguistic-logical expertise, legal linguistics, coherence, propositional logic, syntactic scope, logical contradiction, Tax Code, official text analysis, anaphoric connection.*

References

- Arutyunova, N. D. 1990. *Logicheskiy analiz yazyka: Protivorechivost i anomalnost teksta*. Moskva: Nauka.
- John Langshaw Austin. 1962. *How to Do Things with Words*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
- Baranov, A. N. 2007. *Lingvisticheskaya ekspertiza teksta: teoriya i praktika*. Moskva: Flinta; Nauka.
- Galyashina, Ye. I. 2003. *Osnovi sudebnogo rechevedeniya*. Moskva: Stet.
- Herbert Paul Grice. 1975. "Logic and Conversation." In *Syntax and Semantics*, vol. 3, edited by Cole P. and Morgan J. New York: Academic Press.
- Hakimov, M. 2001. *O'zbek tilida matnning pragmatik talqini*. Toshkent: Fan.
- Walter Kintsch, and Teun A. van Dijk. 1983. *Strategies of Discourse Comprehension*. New York: Academic Press.
- Mahmudov, N. 1998. *O'zbek tilining nazariy grammatikasi: Sintaksis*. Toshkent: O'qituvchi.
- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2021. Toshkent: Lex.uz.
- Safarov, Sh. 2006. *Pragmalingvistika*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- John Searle. 1969. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Stephen Toulmin. 1958. *The Uses of Argument*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Frans H. van Eemeren, and Rob Grootendorst. 1984. *Speech Acts in Argumentative Discussions*. Dordrecht: Foris.
- Teun A. van Dijk. 1977. *Text and Context: Explorations in the Semantics and Pragmatics of Discourse*. London: Longman.
- Xolmanova, Z. T. 2007. *Yuridik terminlarning leksik-semantik xususiyatlari va tarjima muammolari*. Toshkent: TDYu nashriyoti.